

YORDAMCHI SO‘ZLARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Palvonnazarova Hayotxon Jamoladdin qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O‘zga tili guruhlarda o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Bu maqolada yordamchi so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida yozildi. Bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklamalarga kiruvchi so‘zlar va qo‘shimchalar haqida ma’lumot va misollar keltirildi.*

Kalit so‘zlar: *yordamchi so‘zlar, bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama, tilshunoslik, Sof va vazifadosh ko‘makchi.*

O‘zbek tilda so‘z turkumlarini uch guruhga bo‘lib o‘rganamiz mustaqil so‘z turkumlari, yordamchi so‘z turkumlari, oraliqdagi so‘zlar. Mustaqil so‘z turkumlari mustaqil ma’no anglatadigan, mustaqil so‘roqqa javob bo‘ladigan, Yakka o‘zi sintaktik vazifa bajaradigan so‘zlarga mustaqil so‘zlar deyiladi. Bularga ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe‘l so‘z turkumlari kiradi. Mustaqil qo‘llana olmaydigan, atash ma’nosiga ega bo‘lmagan o‘zidan oldin kelgan so‘zga bog‘lanib shu bilan bir xil sintaktik vazifa bajaradigan va shu so‘zning urg‘usini oladigan, so‘zlarni va qo‘shma gap qismlarini bir-biri bilan bog‘lashga xizmat qildigan so‘zlar esa yordamchi so‘zlar deyiladi. Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kiradi. Oraliqdagi so‘zlar esa mustaqil so‘zlarga ham kirmaydi yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan lekin ikkisining belgisini ham o‘zida namoyon qila oladigan so‘zlarga aytiladi. Oraliqdagi so‘zlarning yana bir nomi alohida olingan so‘zlar deb ham aytiladi. Bularga undov so‘zlar, modal so‘zlar, taqlid so‘zlar kiradi.

Yordamchi so‘zlar deb gapga qo‘shimcha ma’no yuklaydigan o‘zi ma’lum bir so‘roqqa javob bo‘lmaydigan so‘zlarga aytiladi. Yordamchi so‘zlar so‘z va qo‘shimcha shaklida bo‘lishi mumkin. Sen-a so‘zidagi qo‘shimcha yuklama bo‘lib kelyapti.

Yordamchi so‘zning shakliy xususiyatiga ko‘ra turlari. Yordamchi so‘z shakliy xususiyatiga ko‘ra: a) qo‘shimchasimon ; b) sof yordamchi so‘z; d) nisbiy yordamchi so‘z ko‘rinishiga ega. Qo‘shimchasimon yordamchi so‘z har uchala yordamchi so‘z tarkibida uchraydi. Ko‘makchi orasida -dek/-day, -cha, bog‘lovchi orasida -ki/-kim; -u, -yu,-da affikssimon yuklama - bog‘lovchi, yuklama orasida -mi, -chi, -a, -ya, -ku,-oq/yoq, -da, -gina kabi qo‘shimchaga o‘xshash yordamchi so‘zni uchratish mumkin. Qo‘shimchasimon yordamchi so‘z shaklan qo‘shimchaga o‘xshaydi, ammo yordamchi so‘z vazifasini bajaradi. Chunonchi, 1. Po‘latdek (kabi) dadil bir yigit bu ishdan hayiqsa, uyat bo‘ladi. (O .M ux.) 2. Shu payt. o‘g‘ilchasi eshikdan yugurib keldi-da (va), dadasining quchog‘iga otildi. (Oybek.) 3. Bazmga Gulnoragina (faqat) kelmadi. (S.Ahmad) Sof ko‘makchi sirasiga uchun, bilan, sari, qadar, kabi, singari, sayin, orqali so‘zlari; sof bog‘lovchi sirasiga va, hamda,

ammo, lekin, biroq, balki, yo, yoxud, go'yo, agar, basharti, sof yuklama qatoriga xuddi, faqat, axir, hatto, naq, atigi so'zi kiradi. Nisbiy yordamchi so'z atamasi ostida boshqa turkumga mansub bo'lgan so'zning yordamchi vazifasida qo'llanilishi (old, orqa, avval, bo'ylab, boshlab) yoki tabiatida "shakldoshlik" mavjud bo'lgan birlik tushuniladi. Masalan, (yolg'iz) sifat turkumiga oid so'z-yuklama o'rnida (Yolg'iz senga suyanaman) ishlatiladi. Yoki Vaqtida yomg'ir yog'adi, vaqtida qor gapida (vaqtida) so'zining vazifasi bog'lovchiga yaqin. Bunga o'xshash misol nutqimizda ko'p. Yordamchi so'zning shakliy xususiyatiga ko'ra turini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin.¹

O'zbek tilidagi ko'makchiga birinchi bo'lib mukammal ta'rifni A .N .Kononov bergan: "Ko'makchilar shunday bir gruppaga so'zlarki, ular ot bilan yoki obyekt bilan predikat orasidagi qurol-vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo'nalish, o'xshatish kabi munosabatning yaratilishida xizmat qiladi". Sh. Shoabdurahmonov ham o'zining "Y ordamchi so'zlar" asarida ko'makchiga shunday ta'rif bergan: "Ko'makchi obyektning obyektga yoki obyektning predikatga bo'lgan turli grammatik munosabatini ko'rsatuvchi yordamchi so'zdir".

Ko'makchi ma'no jihatdan kelishik qo'shimchalariga yaqin turadi. Shu sababli kelishik bilan ifodalangan ma'noni ko'makchi orqali ham ifodalash mumkin. Onamga oldim (onam uchun oldim). Kelishik va ko'makchining farqi shundan iboratki, ko'makchi bilan ifodalangan gapda aniqlik bo'ladi kelishikda aniqlik bo'lamydi. Ko'makchilar vazifasiga ko'ra; sof ko'makchi, vazifadosh ko'makchi, qo'shimchasimon ko'makchi bo'ladi. Sof ko'makchilar tobe so'zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qiladi. Bularga sari, sayin, singari, bilan, qadar, uchun so'zlari kiradi bular faqat ko'makchi vazifasida keladi. Bilan ko'makchisi bog'lovchi vazifasida ham keladi.

Bog'lovchi ham ko'makchidek tobe munosabatni ifodalash uchun xizmat qiladi undan tashqari teng munosabatni ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Bog'lovchilarni ham ko'makchilardek uch guruhga bo'lib o'rganamiz. Faqat bog'lovchi vazifasida keladigan va, hamda, yo, yoxud, ammo, lekin, biroq so'zlari sof bog'lovchilar deyiladi. Qo'shimchasimon bog'lovchilarga esa -u\-, -yu, -da, -mi qo'shimchalari kiradi. ba'zan, bir, vaqtida, hali, goh (goho) so'zlari esa vazifadosh ko'makchilar qatoriga kiradi. Bog'lovchilarni vazifa jihatda ikki guruhga bo'lib o'rganamiz. Teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar. Teng bog'lovchilarga 1. Biriktiruv bog'lovchisi: va, -u\-, -yu, hamda. 2. Ayiruv bog'lovchilari: yo, yoxud, goho, dam... dam, bir... bir, ba'zan... ba'zan. 3. Zidlov bog'lovchisi: ammo, lekin, biroq. Ergashtiruvchi bog'lovchilarga 1. Aniqlov bog'lovchisi: ya'ni, -ki/- kim. 2. Sabab bog'lovchisi: chunki, shuning uchun, zeroki. 3. Shart bog'lovchilari: agar, agarda, agarchi. 4. Chog'ishtiruv bog'lovchisi: go'yo, go'yoki.

¹ Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abdusalova M Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent – 2009.

Yuklama soʻz yoki gaplarga soʻroq, taʼkid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, oʻxshatish kabi qoʻshimcha maʼno beradi. Yordamchilar ham koʻmakchi bogʻlovchilardek uch xil shaklga ega boʻladi sof, vazifadosh, qoʻshimchasimon shakllarga ega boʻladi. Sof yuklamalarga xuddi, faqat, axir yuklamalari kiradi. Vazifadosh yuklamalarga esa baʼzan, tanho soʻzlari kiradi. Qoʻshimchasimonlarga esa -mi, -chi, -a, -ya qoʻshimchalari kiradi. Yuklama vazifaviy jihatdan quyidagi maʼno turiga boʻlinadi: 1. Soʻroq yuklamasi: -mi, -chi, -a, -ya, nahotki. Nahotki bugun hama aylanishga borsa? Bugun darsga kelasanmi?

2. Ayirish-chegaralash yuklamasi: faqat/faqatgina, -gina/-kina/- qina. *Faqatgina* Nasibaning onasi majlisga kelmadi.

3. Taʼkid yuklamasi (-ku, -da, -u, -yu). Onasi kelgan-ku

4. Kuchaytiruv yuklamasi: axir, hatto, hattoki, -oq/-yoq. -oq/-yoq. *Axir* teatrni bir vaqtlar bekorga “ibratxona” deb atashmagan.

5. Oʻxshatish-qiyoslash yuklamasi: xuddi, naq, goʻyo, goʻyoki. U *xuddi* gumonsirab kelgan, ehtimol, har tomonga odam qoʻygandir. Hoy, aravakash bola, otingni tort, naq tezagini doʻppingga solib beraman!

6. Inkori yuklamasi: na. *Na* chora qimorbozning umri shu ekan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamolxonov H Hozirgi oʻzbek adabiy tili Toshkent-2005
2. Irisqulov M T Tilshunoslikka kirish
3. Rahmatullayev Sh Oʻzbek tili omonimlarining izohli lugʻati Toshkent-1984
4. Rahmatullayev Sh Hozirgi adabiy oʻzbek tili toshkent-2006
5. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abduzalova M Hozirgi oʻzbek adabiy tili Toshkent – 2009.